

## TARIX FANINI O’QITISHDA KASBIY MAHORATNING AHAMIYATI VA INNOVATSION USULLAR BO’YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS ON THE IMPORTANCE OF PROFESSIONALISM AND INNOVATIVE METHODS IN TEACHING HISTORY

### МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ О ЗНАЧЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА И ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ИСТОРИИ

Hayitova Moxigul Baxtiyorovna

Buxoro viloyati Buxoro shahar

30-umumiy o’ita ta’lim maktabi tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada tarix fanini o’qitishda kasbiy mahoratning ahamiyati va innovatsion usullar bo’yicha uslubiy tavsiyalar haqida so’z boradi. Bu maqola tarix darslarini samarali tashkil etishda yordam beradi.

**Abstract:** This scientific article talks about the importance of professionalism and innovative methods in teaching history. This article will help you organize history lessons effectively.

**Аннотация:** В данной научной статье говорится о важности профессионализма и инновационных методов в обучении истории. Эта статья поможет вам эффективно организовать уроки истории.

**Kalit so’zlar:** tarix, barkamol avlod, jamiyat, maqsadli yondashuv, ta’lim-tarbiya, innovatsion usullar, atamalar, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikr...

**Key words:** history, mature generation, society, targeted approach, education, innovative methods, terms, pedagogical technologies, creative thought...

**Ключевые слова:** история, зрелое поколение, общество, адресный подход, воспитание, инновационные методы, термины, педагогические технологии, творческая мысль...

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta’lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo’lib yetishishlariga bog’liq. Bu mas’uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o’qituvchisi, ta’lim beruvchilardan o’z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg’or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to’liq angashlari va uni o’z darslarida mohirona foydalanishlarini talab etadi.

«Maqsadli yondashuv» uslubi ta’limda o’quvchilarni ijodiy fikrlashga, fanning mazmun mohiyati va maqsadini o’rgatadi. U nafaqat o’quv-bilim faoliyatini tizimlashtiradi, jadallashtiradi, balki ta’lim oluvchilarning umumiyl madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi, predmetlararo bog’lanish tufayli maqsadlar turli darajada namoyon bo’ladi.

Har bir darsda ta’limning aniq maqsadi belgilanishi o’qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo’yicha o’qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Darhaqiqat, har qanday fan o’zining paydo bo’lgan vaqtidan boshlab katta

bilimlar hajmini to'plagan va u yuqori tezlikda boyitib bormoqda. O'qitish faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ular hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur. Bugun ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.



“Faol pochta” metodi. Darsda bu metoddan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bu metoddan darsning barcha bosqichlarida foydalansa bo'ladi. Bu metodning yana bir afzalligi shundaki, barcha o'quvchilar faol ishtirok etadilar. Bunda sinf o'quvchilari 4 ta guruhga ajratiladi. Guruhlar bir- birlari bilan maktub almashadilar. Ya'ni, 1- guruh a'zolari 2- guruh a'zolariga, 2- guruh a'zolari 3- guruh a'zolariga, 3- guruh a'zolari 4- guruh a'zolariga, o'z navbatida 4- guruh a'zolari 1- guruhdagi o'quvchilarga maktub yo'llaydilar. Maktubda esa har bir o'quvchi o'rganilgan mavzu yuzasidan boshqa o'quvchiga savol tuzib yo'llaydi. Maktublar almashilgandan keyin esa yana qaytib o'z egasiga qaytariladi. Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarni baholash bosqichida maktub egalaridan natijalarning to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilganligini so'raydi. Bu savolga maktubiga noto'g'ri javob olgan o'quvchilargina javob berishadi. To'g'ri javob olgan maktub egalari esa jim turishadi. Shu orqali o'qituvchi bir vaqtning o'zida butun sinfni baholay oladi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga elektron pochta haqida, undan qanday foydalanish mumkinligi haqida ham o'quvchilarga tushuncha beradi.

O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizgning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular

bilan fahrlanishga, milliy iftixon tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

## **"ATAMALAR MAZMUNI" usuli. Bu usul quyidagi tartibda amalga oshiriladi.**

**Industrial sivilizatsiya** – ijtimoiy hayot uchun muhim rol o'ynaydigan jamiyat. Yangi davrda shakllangan bozor munosabatlari, siyosiy va ijtimoiy tenglik, huquqiy davlat, diniy bag'rikenglik, inson huquqlari, umuminsoniy qadriyatlar kabi tushunchalar industrial sivilizatsiyaning asosiy belgilari hisoblanadi.

**Sekulyarlik** – hukumat va boshqa huquq manbalari dinning har qanday turidan alohida bo'lishi kerakligi haqidagi tushuncha.

"CHARXPALAK" USULI. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishslash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya tarix darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, erkin fikrlaydigan insonga aylantirish juda ham muhimdir. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishslash ko'nikmasini rivojlantiradi.

"Mening juftimni top" usuli. Bu usul sharti asosida so'zlarni mantiqan bir-biriga bog'langan holda tarixiy ma'lumotlar yozing.

( Bir-biriga bo'qliq so'zlar 2 tadan ortiq emas.)

1	Toshkent	5	VIII-VII asrlar
2	1996 yil	6	Lidiya
3	Jorj Stefanson	7	2009
4	1825	8	Amir Temur

Yoshlarga bilim berish ustida har kuni har xil usullar, yangicha yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etilar ekan, ularga ta'lim berayotgan o'qituvchilarning bilim va malakalarini oshirishda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar o'z vaqtida joriy etishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda ko'plab innovatsion usullar samarali bo'lib, ayniqsa ta'limda aniq maqsad qo'yish yoki fanlararo bog'lash, aniq maqsadga erishish ko'p foydali hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N. Atayeva, F. Rasulova, S. Hasanov. Umumiy pedagogika o'quv qo'llanma: Toshkent -2011-yil.
2. B. Ziyamuxammedov Pedagogika: T. 2000-yil
3. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2005 yil